



INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI

Xasanova Aziza Ikromovna

Xalqaro innovatsion universiteti assistant-o'qituvchisi
azizaxasanova799@gmail.com

Saxatova Muqaddas Tashpo'latovna

Xalqaro innovatsion universiteti assistant-o'qituvchisi
mukaddassaxatova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15037275>

Annotatsiya. Ushbu maqola mavzusining alohida dolzarbligi inson kapitaliga investitsiyalar mamlakatda faol iqtisodiy o'sish yo'li ekanligidir. Inson kapitaliga investitsiyalar – ishchilarning kelajakdagi mehnat unumdorligini oshirish uchun sarflanadigan xarajatlar va har bir alohida kapital tashuvchilarning va butun jamiyatning kelajakdagi daromadlarining o'sishiga hissa qo'shishi. Bu, bir tomondan, kapital egasining daromadlarini oshirishga imkon bersa, ikkinchi tomondan, davlatning iqtisodiy o'sishiga hamroh bo'ladi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, investitsiyalar, ta'lim, iqtisodiy o'sish, hayot sifati, innovatsion iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish.

Аннотация. Особая актуальность темы данной статьи состоит в том, что инвестиции в человеческий капитал являются способом активного экономического роста в стране. Инвестиции в человеческий капитал — это расходы, осуществляемые с целью повышения будущей производительности труда работников и способствующие росту будущих доходов отдельных носителей капитала и общества в целом. Это, с одной стороны, позволяет увеличить доходы владельца капитала, а с другой – сопутствует экономическому росту государства.

Ключевые слова: человеческий капитал, инвестиции, образование, экономический рост, качество жизни, инновационное экономическое развитие, социальное развитие.

Abstract. The special relevance of the topic of this article is that investment in human capital is a way of active economic growth in the country. Investments in human capital are expenditures made to increase the future productivity of workers and contribute to the growth of future incomes of individual capital carriers and society as a whole. This, on the one hand, allows to increase the income of the capital owner, and on the other hand, accompanies the economic growth of the state.

Key words: human capital, investments, education, economic growth, quality of life, innovative economic development, social development.





Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida innovatsion rivojlanishning asosiy ko'rsatkichi milliy boylikning umumiy tarkibida inson kapitalining ulushi hisoblanadi. Innovatsion iqtisodiyotga o'tish davrida yuqori malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Yuqori darajadagi ta'lim va professionallik bugungi kunda raqobatbardoshlik, innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy vositadir. Ta'lim darajasi nafaqat mehnat daromadining kafolati, balki ishsizlik xavfini minimallashtirish imkonini beruvchi ijtimoiy harakatchanlik kafolati hisoblanadi.

Inson kapitalini rivojlantirishda ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar juda katta ahamiyatga ega. Ta'limga qilingan investitsiyalar insonning shaxsiy rivojlanishiga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishiga va mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlarini ta'lim kapitali va mehnat kapitali deb ajratish mumkin. Mehnat kapitaliga kiruvchi inson qobiliyatlari majmui ularning daromad olish qobiliyati nuqtai nazaridan baholanadi. Inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlarini ta'lim kapitali va mehnat kapitali deb ajratish mumkin. Mehnat kapitaliga kiruvchi inson qobiliyatlari majmui ularning daromad olish qobiliyati nuqtai nazaridan baholanadi.

B.Genkin ta'rifiga ko'ra, inson kapitali "hosildorlikni belgilovchi va shaxs, oila, korxon va jamiyat uchun daromad manbaiga aylanishi mumkin bo'lgan sifatlar yig'indisidir", M.Kolosnitsina ta'rifiga ko'ra, inson kapitali – "insonda mujassamlangan daromad olish qobiliyati"dir¹. G.Bekker inson kapitalining zamonaviy nazariyasi asoschisi bo'lib, u inson kapitalida bilim, ko'nikma va motivatsiyani alohida ajratib ko'rsatadi.

Ta'lim inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Inson kapitali darajasi va sifatini oshirishda ta'limga investitsiyalar eng muhim hisoblanadi. Ta'limga investitsiyalar inson kapitaliga sarmoya kiritishning asosiy, eng keng tarqalgan va chuqur o'rganilgan sohasidir. Ta'limga qilingan investitsiyalar odamlarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Bu esa insonlarning ishchi kuchi sifatini yaxshilaydi, ularning yuqori malakali va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi. Ta'limda berilgan bilimlar va ko'nikmalar iqtisodiyotda talab qilinadigan sohalarda ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu orqali iqtisodiyotda yuqori samaradorlikka erishish mumkin. YuNESKO ma'lumotlariga ko'ra, odamlarning daromadlaridagi farqning 60 foizi turli xil ta'lim darajasiga, 40 foizi esa boshqa barcha omillarga (sog'liq, tabiiy qobiliyatlari, ijtimoiy kelib chiqishi) bog'liq.





Ta'limga qilingan investitsiyalar kelajak avlodining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarni yaxshi ta'lim olishga undash, ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni jamiyatda faol qatnashishga tayyorlash orqali jamiyatning kelajagi ta'minlanadi. Yoshlar ta'lim olish orqali kelajakda o'ziga ishonch hosil qiladi va jamiyatga foydali a'zo bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Mamlakat rivojlanishi o'sib kelayotgan yosh avlod salohiyatiga bog'liq. O'zbekistonning yosh avlod vakillari yaqin kelajakda mamlakat taraqqiy etish yo'llarini aniqlashi lozim, ularga berilayotgan ta'lim sifati mamlakat siyosiy va ijtimoiy tuzumiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Oliy ta'lim muassasalarining kuchli moddiy-texnik bazasi, ularning zamonaviy jihozlanishi talaba(magistrant)larning yanada ko'proq dunyoviy bilimlar olishga, o'qish-o'rganishga chorlaydi. Davlat ta'lim xizmatlari iste'molchilariga, shaxslarga ta'lim sifati va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni kafolatlashi kerak. Shaxs, ta'lim xizmatlari ishlab chiqaruvchilari kabi ta'limning muvofiq darajasiga va malakasiga ega bo'lib, o'z faoliyatida ishlab chiqarishda, fanda, madaniyat va xizmatlar sohasida bilim, uquv, ko'nikma va tajribalarini boshqalarga beradi.

Inson kapitaliga investitsiyalar ularni investitsiya xarajatlarining boshqa turlaridan ajratib turadigan bir qator xususiyatlarga ega.

1. To'plangan bilim va ko'nikmalar kelajakda daromad keltirishi mumkin bo'lgan taqdirdagina ta'limga sarflangan mablag'lar inson kapitaliga investitsiyalar hisoblanadi.

2. Ta'lim darajasini oshirishdan keladigan daromadning o'sishining yuqori chegarasi mavjud. Shaxsning keyingi tayyorgarligi (magistratura, aspirantura, doktorantura) bilan bog'liq yuqori darajadagi ta'lim daromadning tobora kichikroq o'sishini ta'minlaydi: o'qitishning muqobil va to'g'ridan-to'g'ri xarajatlari oshadi. Shu bilan birga, daromadi biroz oshganiga qaramay, insonning ta'limni davom ettirish qarori, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyati, boshqa omillar ta'sir qilishi mumkin.

3. Insonga sarmoyaning qaytarilishi ish hayotining davomiyligiga bog'liq.

4. Inson kapitali nafaqat to'planishi mumkin, balki jismoniy va ma'naviy eskirishga ham duchor bo'ladi.

Bevosita insonga qo'yiladigan investitsiyalar boshqa jarayonlardagidek foyda olishni rejalashtiradi, inson kapitali nazariyasi ta'limning iqtisodiy samaradorligini aniqlash vositasi sifatida qaraladi, chunki ta'limga kiritilgan har qanday sarmoya (investitsiya) albatta iqtisodiy samara beradi. Shuningdek, talaba(magistrant)ning oliy ma'lumot olishi uchun sarflanadigan xarajatlarni,





bevosita o'quv xarajatlari, ta'lim jarayonida talaba (magistrant) kerakli bilim va malakalarni olmagan bo'lsa, bular foydalanilmagan xarajatlar deb talqin qilinadi.

Tadqiqotlar natijasiga muvofiq hozirgi davrda ko'pgina OTMlari turli yo'llar bilan sarmoya(investitsiya)lar topish bilan shug'ullanadilar, jumladan, abituriyentlar uchun fanlar bo'yicha qisqa muddatli va bir yillik tayyorlov kurslarini tashkil etish, tashkilot (korxonalar, muassasa, konsern, kompaniya va b.) buyurtmasiga ko'ra ilmiy izlanishlar olib borish, turli yo'nalishlardagi qisqa muddatli kurslar, ta'lim dasturlari, madaniy-ma'rifiy dasturlarni tayyorlash, kasbga yo'naltiruvchi sohalar bo'yicha tadbirkorlik subyektlari uchun ishlanmalar, tavsiyanomalar ishlab chiqish, xullas, OTMlari o'zlarida to'plangan bilim, malaka va tajribalarni interpretatsiya qilish, shu bilimlarni mustahkamlash, ulardan samarali foydalanish va hokazo.

Bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib respublika OTMlarining jahon ta'lim tizimi bilan integratsiyalashishga yuz tutishi, respublika OTMlari tarmog'ini takomillashtirish maqsadida xalq xo'jaligi tarmoqlari kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini va fuqarolarning ta'lim ehtiyojlarini to'laroq qondirishi, talaba(magistrant)larning o'z ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar) bo'yicha malakaga ega bo'lishlari, oliy ta'limdan keyingi bosqichlarda tayyorgarlikdan o'tish bosqichlarida oliy ta'limning nufuzi va obro'sini saqlash hamda taraqqiy ettirish maqsadida "ta'lim-fan" tizimini kuchaytirilishi va boshqa qator vazifalar hozirgi davrda O'zbekiston oliy ta'limi tub o'zgarishlarni boshidan kechirayotganligidan dalolat beradi.

Ta'limdan tashqari, mamlakatning inson kapitalining rivojlanish darajasi ham ta'lim darajasiga qarab ishsizlik darajasini belgilaydi. Ta'limga investitsiya qilish ish o'rinlarini yaratish va ishsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Yaxshi ta'limga ega bo'lgan odamlar malakali ishchilar sifatida yuqori daromadli va barqaror ish o'rinlariga ega bo'lishadi. Bu ishchilarning iqtisodiy barqarorligini oshiradi va jamiyatda ishsizlik darajasini kamaytiradi.

Fuqarolar ta'lim va kasb-malakasi, mehnati, salomatligi, mentaliteti, boshqaruvchilik, ijodiy, tadbirkorlik qobiliyatlari va boshqa imkoniyatlari inson kapitali, inson kapitaliga sarmoyalar jalb qilish mehnat unumdorligini oshirishning muhim vositasi, ta'lim darajasi esa ishchi kuchining eng oddiy va eng zaruriy ko'rsatkichidir. Hozirgi kunda mamlakatimizda xalq xo'jaligida band bo'lgan oliy ma'lumotli bakalavr(magistr)lar soni, ularning o'z mutaxassisliklari bo'yicha ishlashlari darajasi rivojlangan mamlakatlarning shu sohalaridagi ko'rsatkichlaridan ancha past. Inson kapitaliga investitsiya qo'yishdan olingan





foyda bilan undan yaxshiroq usul orqali olingan foyda (qulayliklar) hajmi tenglashsa, investitsiyalashni davom ettirishning zarurati bo'lmaydi.

Ta'limga qilingan investitsiyalar jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Yaxshi ta'lim olgan odamlar ko'pincha iqtisodiy ahvolini yaxshilaydi, yirik iqtisodiy farqni kamaytirishga yordam beradi va jamiyatdagi tengsizlikni kamaytiradi. Ta'limning ta'siri bilan odamlar nafaqat yuqori daromadli ishlar egasi bo'lishadi, balki ijtimoiy mas'uliyatli va barqaror jamiyatning qurilishida ishtirok etadilar.

Inson kapitalini rivojlantirish uchun ta'limga investitsiya qilish innovatsiyalarni yaratishga va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Yuqori malakali va bilimdon ishchilar yangi texnologiyalarni o'rganadi, mavjudlarni takomillashtiradi va yangi mahsulotlarni ishlab chiqadi. Ta'lim va ilmiy izlanishlarga bo'lgan investitsiyalar, ayniqsa ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematikaga qaratilgan sohalarda rivojlanishni tezlashtiradi.

Inson kapitaliga qilingan investitsiyalar orqali mamlakat o'zining global raqobatbardoshligini oshiradi. Yaxshi ta'lim olgan va innovatsion fikrlashga ega odamlar jamiyatning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bu mamlakatning xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan o'zining ustunligini saqlab qolishiga imkon yaratadi.

XULOSA:

Ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar inson kapitalini rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Bu nafaqat individuallarning o'zlarini rivojlantirishiga yordam beradi, balki butun jamiyat va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini, innovatsion va texnologik taraqqiyotini hamda global raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Inson kapitaliga investitsiya qilish jamiyatning kelajagini qurishda eng muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беккер Г. Человеческое поведение: экономический подход. – М.: Высшая школа экономики, 2003.
2. Лысков А. Человеческий капитал: понятие и взаимосвязь с другими категориями. // Менеджмент в России и за рубежом. 2004. № 6. С. 3-11.
3. Kusainov T., Zhakupova Zh. Influence of the quality of human capital on the efficiency of the economy of Kazakhstan. Society and economy, 2019, no. 6, pp. 45-59.
4. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика: В 2 т. – М.: Республика, 1992. Т. 2. – 400 с.





5. Mincer J. (1974). Schooling, experience, and earnings. Human Behavior & Social Institutions No., 2.
6. Tharenou P., Saks A.M. & Moore C. (2007). A review and critique of research on training and organizational-level outcomes. Human Resource Management Review, 17(3), 251-273.
7. Ильинцкий И. Инвестирование в будущее: образование в инвестиционном воспроизводстве. – СПб.: Изд. СПбУЭФ, 1996. – 163 с.
8. Марцинкевич В.И., Соболева И.В. Экономика человека. Учеб. пособие для высш. учеб. заведений. – М.: Аспект Пресс, 1995. – 286 с.
9. Абдурахманов К.Х. Развитие человеческого капитала в инновационной экономике. // “Меҳнат иқтисодиёти ва инсон капитали” илмий-электрон журнали. 2022 йил, махсус сон.
10. Генкин, Б. М. Организация, нормирование и оплата труда на промышленных предприятиях : учебник для вузов. — М. : Норма – ИНФРА-М, 1998.
11. Григорьева, Т. О. Бизнес-образование как фактор развития управленческого потенциала промышленного предприятия : автореферат дис. ... канд. экон. наук. — М., 2001.
12. Добрынин, А. И., Дятлов, С. А., Цыренова, Е. Д. Человеческий капитал в транзитивной экономике : формирование, оценка, эффективность использования. — СПб. : Наука, 1999.
13. Добрынин, А. И., Дятлов, С. А., Цыренова, Е. Д. Человеческий капитал в транзитивной экономике : формирование, оценка, эффективность использования. — СПб. : Наука, 1999. С. 254.
14. Драгончук, Л. С. Образование и развитие человеческого капитала в России // Проблемы современной экономики. 2011. № 1.
15. Дятлов С. А. Теория человеческого капитала. СПб.: Изд-во СПбУЭФ, 1996. 141 с. 2. Кендрик Дж. Совокупный капитал США и его формирование. М.: Прогресс, 1978. 275 с.
16. Макконел К. Р., Брю С. Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика: В 2 т. М.: Республика, 1992. Т. 2. 400 с.
17. Формирование посткризисной модели хозяйствования и экономического роста России / Под ред. А. И. Добрынина, Е. С. Ивлевой. СПб.: Изд-во СПбУУЭ, 2012. 338 с.
18. Человеческий капитал: мировые тенденции и российская специфика: Докл. и тезисы выступлений участников XVI Кондратьевских





чтений. (Москва, 19 ноября 2008 г.). М.: МФК им. Н. Д. Кондратьева. 2009. 409 с.

19. Bozarov D. Methods of developing economic competence on the basis of interdisciplinary relationship //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 131-137.

20. Bozarov D. CHIZIQLI VA KVADRATIK MODELLASHTIRISH MAVZUSINI MUSTAQIL O 'RGANISHGA DOIR MISOLLAR //Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 24-28.

21. Bozarov D. Bo 'lajak iqtisodchi talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirishning matematik tahlili //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 27. – С. 84-90.

